

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rni va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbanov	
O'zbekiston tog' zonasasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250
<hr/>	
QISHLOQ XO'JALIGI	
N.A.Abdujalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyali urug'lik fondini tayyorlash.....	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rni.....	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rni.....	276
M.X.Raxmatulloev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.....	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Turdaliyeva	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'ttasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



УО'К: 94(575.1)

**МАХАЛИЙ ВА ХОРИЙ МАНБАЛАРИДА АМИР ШОХМУРОД ШАХСИ ВА ФАОЛИЯТИ
ТАВСIFI**

**ОПИСАНИЕ ЛИЧНОСТИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АМИРА ШОХМУРОДА В МЕСТНЫХ И
ЗАРУБЕЖНЫХ ИСТОЧНИКАХ**

**DESCRIPTION OF AMIR SHOHMUROD'S PERSONALITY AND ACTIVITIES IN LOCAL
AND FOREIGN SOURCES**

Subxonova Niso Axmadovna

BMTI, ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasи mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada mang'itlar sulolasining uchinchi vakili bo'lgan amir Shohmurodning shaxsi, davlat arbobi sifatidagi faoliyatini, shariat qonun-qoidalari asosida hayot kechirishi tadqiqotchilar nazarida qay tartibda bayon qilinganligi tadqiq qilingan.

Аннотация

В данной научной статье исследуется личность Амира Шохмурада, третьего представителя династии Мангытов, и его деятельность как государственного деятеля, а также то, как он жил в соответствии с законами шариата, как это представлено исследователями.

Abstract

This scientific article investigates the personality of Amir Shohmurod, the third representative of the Manghit dynasty, and his activities as a statesman, as well as how he lived according to the laws of Sharia, as presented by researchers.

Kalit so'zlar: tasavvuf, so'fizm, fiqh, jizya, amiri ma'sum, amir Shohmurod.

Key words: Sufism, fiqh, jizya, Amir Ma'sum, Amir Shohmurod.

Ключевые слова: суфизм, фикх, джизья, амир Ма'сум, амир Шохмурод.

KIRISH

O'rta Osiyo xalqlari so'nggi o'rta asrlar tarixining tadqiqotlari kamchilikni tashkil etadi. Sovet davri tarixshunosligida shu davrda yashab o'tgan davlat arboblari, shu bilan bir qatorda xonlik va amirliklardagi sulola vakillari adolatsiz, zolim, o'z saroylarida faqat halovatda yashagan hukmdorlar sifatida ta'kidlab kelingan. Ularning davlatni boshqarish sohasidagi islohotlari, shariat qoidalariiga amal qilganligi, ma'rifatparvarligi, ta'lif tizimidagi amalga oshirgan ishlari deyarli yoritilmagan.

Buxoroda XVIII asrning o'talarida hokimiyat tepasiga kelgan amir Shohmurodning shaxsi, hayoti, uning hukmronlik davrida olib borgan ishlari diqqatga sazovor bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan ham ijobjiy tadqiq etilgan. Bir qanha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan Amir Shohmurodning turmush tarsi, tasavvufda tutgan o'rni, shariat qoidalari asosida davlatni boshqarishi, ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratganligi tadqiqotlarda qisman bayon qilingan xolos. Shu sabab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar amir haqida keltirib o'tgan mulohazalarni qiyosiy tahlil qilgan holda, mantiqiy qiyoslash va xolislik tamoyillari asosida yoritishni afzal deb bildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda XIX asrda yaratilgan asarlardan hamda maqolalardan ilmiy manba sifatida foydalanildi. Jumladan, Ahmad Donishning "Mang'itlar xonadoni hukmdorlari tarixidan qisqacha risola", Mirzo Abdulazim Somiyning "Tarixi salotini mang'itiya", Mulla Olim Maxdum Hojining "Tarixi Turkiston", J.Shodiyevning "Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi", A.Zamonov, A.Egamberdiyevning "Buxoro amirligi tarixi", Z.Muqimovning "O'zbekiston davlati va huquqi tarixi", Herman Vamberining "Buxoro yohud Movarounnahr tarixi" kabi asarlardan hamda Q.

Rajabovning "Amir Shohmurod yohud "amiri ma'sum", A.Zamonovning "Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba'zi mulohazalar", O.Axmedovning "Buxoro mang'it hukmdorlarining ta'lif tarbiyatagi ibrati", M.Umarovaning "Buxoro amiri Shohmurod ibn Doniyolbiyning hokimiyati legitimatsiyasi", B.Yorbozorovning "Chet el sayyoohlarning Amir Shohmurod siyosatiga munosabati" sarlavhali maqlalardan o'rini tarzda qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan kichik taddiqot natijasida amir Shohmurod shaxsi haqida ba'zi mulohazalarni bergen mahalliy va xorijlik tadqiqotchilarning fikrlari keltirib o'tildi. Mahalliy va xorijlik tarixchi olimlar Shohmurod shaxsi va faoliyati haqida bergen ma'lumotlar qiyosiy, xolislik va taqqoslash tamoyillari asosida yoritildi va falsafiy tahlil qilindi.

MUHOKAMA

Amir Shohmurod (1742-1800) Amiri Kabir, Amiri Ma'sum, Amiri G'oziy, Amiri Jannatmakon, Amiri Valiy va Ikkinch Umar nomlari bilan atalgan [10, 13]. Amir Shohmurod Buxoroda tug'ilgan va uning tarbiyasi bilan otasi Muhammad Doniyolbiy jiddiy shug'ullangan [6, 36]. Muhammad Doniyolbiy vafotidan keyin uning o'g'li Shohmurod davlatni boshqarishni o'z qo'liga oladi. Shohmurod so'fital'at bo'lib ulg'ayganligi uchun ham mamlakatni shariat qonun qoidalari asosida boshqarishni lozim topadi. Buni otasi so'fizm ta'limotiga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, davlatni boshqarishda so'fizm namoyondalaridan biri hisoblangan Maxdumi A'zamning avlodlaridan biri Is'hoq Xojadan maslahat olib turganligidan bilishimiz mumkin [11, 16]. Davlat boshqaruviga kelishidan oldin va hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng amir Shohmurod haqida mahalliy tarixchilarning u haqidagi ta'riflariga e'tibor qaratsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

E'tiborli jihat shundaki, amir Shohmurodning o'g'li Miriy tarixchi olim bo'lib otasi shaxsiga alohida va xolisona ta'rif berishga harakat qilgan. Xususan, Miriyning yozishicha, Shohmurod avval Karmana, keyinchalik Qarshi begi bo'lgan [2, 8].

XIX asrning boshida yashagan Abu Tohirxojaning "Samariya" asarida keltirilishicha, Shohmurod yoshligida bir necha yil Mir Arab madrasasida tahsil olgan. U boshqa fanlar qatorida tasavvuf ilmini ham o'rgangan va so'fiyona tur mush tarsi uning hayoti mazmuniga aylangan [9, 50]. Xuddi shu asr boshida Qo'qonda tug'ilgan tarixchi olim Muhammad Hakimxon To'ra Amir Shohmurodning shaxsiy hayoti va fazilatlari haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirgan: "Alqissa, Shohmurodbiy valna'mi (arabcha, valine'mat, "muruvvat ko'rsatuvchi") Buxoroga yetgach, bir necha kun yo'l hordig'ini yozib, dam olib, davlat yumushlari va xalqning arz-u dodini so'rash ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Aytishlaricha, bayt ul-mol, ya'ni davlat xazinasidan o'zining shaxsiy ehtiyojlari uchun bir fulus ham xarj qilmas ekan" [9, 52]. Bundan ko'rindaniki amir bo'la turib, Shohmurod oddiy hayot tarzini tanlagan va bundan voz kechmagan. Hakimxon to'raning yana bir keltirgan fikriga ko'ra, Shohmurodbiyning tanovul qilgan taomlari kishi yeydigan darajada bo'lmay, o't-o'lan, sut-qatiq va dukkakli o'simliklar bilan taomlangan ekan. U har 15 kunda bir marta juz'iy jon (g'ayridinlardan olinadigan to'lov) solig'idan yig'ilgan mablag' hisobidan go'sht olib, o'z ayoliga nafaqa qilgan ekan. Davlat amaldorlari va avomning to'ylariga bormagan, hadyalar ham olmagan. [9, 52].

O'z davrining tanqidchisi deya tanilgan Ahmad Donish bu amirni maqtab, uni "ikkinch Umar" deb ataganligini M.Umarovaning "Buxoro amiri Shohmurod ibn Doniyolbiyning hokimiyati legitimatsiyasi" maqlasida uchratishimiz mumkin [7, 8].

Yana bir o'sha davr tarixchisi Mulla Olim Maxdum Hoji o'zining "Tarixi Turkiston" asarida: "...Andin keyin otasi Doniyolbiyning vasiyati bo'yicha amiri ma'sum al-ma'ruf Shohmurodbiy Buxoroga podshoh bo'ldi, so'fital'at darveshsurat edi. Podshoh bo'lmastin ilgari shayx Safar nom zotga murid bo'ldi. Shayx "san zolim va zolimzodasan, nechuk riyoza va xizmati mashoyixga toqat qilasan", deganda Shohmurodbiy qasam baistiqomat qilib, xalq nazarida xor, zolilik ilan hammollik qilur edi", deya ta'kidlab o'tgan [4, 170].

Ijobiy fikrlar bilan bir qatorda amir Shohmurod haqida tanqidiy fikrlarni ham manbalarda uchratishimiz mumkin. Jumladan, Abdurauf Fitrat "Amir Olimxonning hukmronlik davri" asarida amir Shohmurodni tanqid ostiga oladi: "Doniyoldan keyin xonlik taxtiga o'tirdi. Shohmurod tor dunyoqarashga ega kishi edi. Lekin unchalik ahmoq emas edi. U mamlakatning ahvoli, mang'itilar sulolasining e'tiborsizligini kuzatib, vaziyatni yaxshi tushunar edi, va bu sulola uzoq vaqt hokimiyatni o'z qo'lida saqlay olmasligini ham yaxshi bilar edi. Shohmurod siphon sarkardalari,

ILMIY AXBOROT

mullolear, shahar va qishloq ahlidan umidini uzgan edi. Bir qaraganda hammol va tilanchiga o'xshar edi. Chunki shayxlar va eshonlar ham o'z muridlariga xuddi shu yo'lni tanlashni uqtiradilar, bu bilan ular o'zlarini xalqqa o'z nafsi o'dirgan, umrlarida to'yib taom yemaganliklariga ishonch hosil qildirish uchun ham shu yo'lni tutar edilar" [7, 8]. Bundan tashqari Fitrat amir Shohmurod ibn Doniyolni "garchi o'zini shayx, parhezga sadoqatli kishi sifatida ko'rsatsa-da, uning dunyoqarashi anchagini cheklangan kishi" deb hisoblagan.

Hozirgi davr tarixchi olimlarimiz ham amir Shohmurod shaxsi haqida yetarlicha manbalar asosida ma'lumot berishga harakat qilganlar. Jumladan, tarix fanlari doktori, professor Q.Rajabov "Buxoro mavjilari" jurnalida berilgan "Amir Shohmurod yoxud "amiri mas'um" sarlavha ostida berilgan maqolada "Amir Shohmurod Qur'oni karim, kalom ilmi (Imom Moturidiy qarashlari), hanafiya mazhabi va tasavvuf haqida yaratilgan asarlarning bilimdoni sifatida Arkdag'i saroyda va Buxoro tashqarisida o'tgan ulamolarning turli majlislarida qatnashib, munozarali masalalarni hal qilgan. U juma namozlarida xaloyiq oldida turli va'zlar aytgan.

Z. Muqimovning e'tirof etishicha, Shohmurodning davlat arbobi sifatida shakllanishida tasavvuf oqimining ta'siri juda kuchli bo'lib, bu borada, ayniqsa, uning shayx Safarning muridi ekanligi hal qiluvchi rol o'ynagan [5, 206]. U ilm ahlini hurmat qilib, ularning ta'minotini yo'lga qo'yan. Lekin tasavvuf uning qahri qattiq hukmdor bo'lib yetishishiga, davlat boshqaruvini mustahkamlash uchun bir necha islohotlarni amalga oshirishiga to'sqinlik qilmadi, deya ta'kidlab o'tadi, Z.Muqimov [5, 206]. Egnidagi po'stinining narxi 2 tangadan oshmagan. Hamma libosining narxi 10 tanga atrofida bo'lgan. O'sha davr iqtisodiy hayotidan qiyoslash mumkinki, Buxorodagi Abdullaxon madrasasi talabalarining oylik stipendiyasi 15 tanga bo'lgan. Pichoq qini yasab tirikchilik qilgan. Har kuni jizya solig'idan bir tanga olib, oilasi zaruratiga ishlatgan [9, 51-52].

Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan sud-huquq, soliq islohotlari hatto uning shaxsi va faoliyati xorij olimlari tomonidan ham e'tirof etib o'tilgan. Xususan, A. Zamonovning "Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi" kitobida ingliz olimi X.Malkolmning quyidagi fikrlari keltirilgan: amir Shohmurod davlat va huquq islohotchisi, islam huquqi normalarining g'oyaviy va amaliy kurashchisi hamda davlat boshlig'i sifatida qirq a'lam sudi ishlarida ishtirok etganda taraflarning o'zaro kelishuvi, jabrlanuvchi va ayblanuvchi tomonlarning o'zaro yarashuvining tarafdoi edi [11, 17]. U jabrlanuvchiga yuklatilgan davlat hisobiga undirilishi kerak bo'lgan mablag'ning yarmini amirlik xazinasidan qoplanishini qo'llagan. Bundan ko'zlangan maqsad jabrlanuvchining oilasi, farzandlari qarovsiz qolib ketmasligining oldini olish edi. Shohmurod tomonidan amalga oshirilgan ushbu mexanizm o'sha davr uchun muhim ahamiyatga ega edi.

Amerikalik olim G.Xemblining ta'kidlashicha, amir Shohmurodning yoshlik yillari Buxoroning qadimiylari Masjadi Kalonida diniy va dunyoviy ilmlarni o'rganish bilan o'tganligini, u darvesh jamiyatining odatlari va kiyimlarini saqlab qolib, hatto o'z qo'shinlarini jangga boshlab borayotganda ham oddiy past bo'yli otida borishini, harbiy yo'lboshchi sifatida ham qobiliyati borligiga alohida urg'u berib o'tadi [11, 19]. Shular bilan bir qatorda, ingliz olimi Genri Skrayn amiri Mas'um "raisi shariat" ya'ni diniy senzurani qayta tikladi, deya e'tirof etadi [8, 48]. Shuningdek, Genri Skraynning "Buxoroga sayohat" kitobining 2-qismida Shohmurodga shunday ta'rif beradi: "Amir Mas'um o'z xalqi orasida taqvolik va ezbilik obro'sini qoldirdi. Buxoro gullab-yashnadi, ma'sum faqat yaxshilik bilan band edi. Ibodatarni ixlos bilan bajardi. U dunyoning barcha rohat va dabdabalaridan voz kechdi, na oltinga, na kumushga tegdi, na o'zi sarfladi. Ma'sum faqat yahudiylar va kofirlardan jon boshidan soliq joriy etdi" [8, 49]. Xuddi shunday ma'lumotni venger sharqshunosi Herman Vamberi ham "Buxoro yohud Mavarounnah tarixi" asarida "Musulmonlardan faqat zakot va ushrgina olinadi. Ammo kofirlardan, ya'ni hind, yahudiy va nasroniylardan juzya olinar edi. Amir Ma'sum o'z saroyi sarfini ham qadimgi xalifalar kabi boshqalarga o'rnak bo'lurlik darajada dinga muvofiq tutishga urinar edi", deya ta'kidlab o'tadi [3, 170].

Bundan tashqari, Herman Vamberi, amir Ma'sum o'zi odatan xaroba holidagi bir uyda yashab, teva junidan tikilgan to'n kiyib, oddiy kosada taom yegan bir paytda uning sarkardalari, zabitlari ipak libos kiyar, bezakli qurollar taqrar, hatto o'rdugohda qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan oltin-kumush qadahlardan foydalanan edilar, deb ma'lumot beradi [3, 171].

Amir Shohmurod faoliyatiga oid yuqorida so'zlarning tasdig'i sifatida T. Burnashev o'z esdaliklarida shunday yozadi: "Uning saroyida zarracha dabdaba yo'q edi. Faqat 2 ta xotini bo'lib, kun kechirishlari uchun nihoyatda kam pul xarj qilinardi. Shu sababli ular tinimsiz turli qo'l mehnati

bilan mashg'ul bo'lardi va tirikchiligi shundan edi. U hech kimnikidan farq qilmaydigan oddiy kiyim kiyardi. Uning odatiy ovqati non va suv edi. Xalq unga alohida ehtirom bilan munosabatda bo'lardi. Uni Muhammad shariatiga haqiqiy amal qiluvchi va hatto avliyo darajasida bilishardi" [9, 53-54].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, amir Shohmurod hukmdor, ulkan bir davlatning rahbari edi. Tarixchi olim Jumanazar ta'biri bilan aytganda, "u xorijlik sayyohlar kelib tomosha qiladigan ulkan inshootlar qurdirmagan. Ammo o'z davrida buyuk e'tiqod, mustahkam iyomon binolarini barpo qilgan edi" [9, 55]. Amir Shohmurod hukmronligi davrida Buxoro amirligi gullab-yashnadi. Mamlakatda ijtimoiy hayotda ancha o'zgarishlar amalga oshirildi. Shu boisdan amir Shohmurod hukmronligi davrida tashrif buyurgan chet el sayyohlari u haqida atroflicha, ijobiy fikrlar bildirib o'tgan. Bundan tashqari o'sha davr mahalliy tarixchilari ham amir Shohmurod haqida ijobiy fikr bildiribgina qolmay salbiy fikrlar ham bildirilgan. Uning shariat borasida amalga oshirgan ishlari ham diqqatga sazovordir. Ammo amir bir tomondan, o'zining mustahkam e'tiqodi va iyomni bilan, ikkinchi tomondan esa mamlakatni hayotni har tomonlama tartibga solishda ancha salmoqli ishlarni amlga oshirdi. Ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurashib, unga barham berganligi uchun ham xalq suygan hukmdorga aylana oldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Ahmad Donish. Risola yohud mang'itlar xonadoni sultanatining qisqacha tarixi – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014 – 13-bet.
2. Axmadov O. Buxoro mang'it hukmdorlarining ta'llim-tarbiyatagi ibrati. Education and innovation research. №7. 2023-8-bet.
3. Herman Vamberi. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. 2-jild – T.:INFO CAPITL GROUP, 2019-yil, 170-bet.
4. Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston – T.: Yangi asr avlod. – 2009-yil 170-bet.
5. Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi – T.: Adolat. – 2003-yil 206-bet.
6. Rajabov Q. Amir Shohmurod yohud "amiri mas'um" – "Buxoro mavjilari" jurnali. Buxoro, 2006-yil- №1-B. 36-38.
7. Umarova M. Amir Shohmurod ibn Doniyolbiyning hokimiyyati legitimatsiyasi -
8. Yorbozorov B. Chet el sayyohlarining Amr Shohmurod siyosatiga munosabati. Международный научный журнал №6 (100) част 1 январь, 2023.
9. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi – T.: TAMADDUN, 2022. – B. 50.
10. Zamonov A. Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba'zi mulohazalar. "O'tmishta nazar" jurnali. Toshkent, 2020-yil, B.13.
11. Shodiyev J. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi – T.: Toshkent Davlat Yuridik Instituti, 2010. – B. 20.